



IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTAB O'QUVCHILARIDA PEDAGOGIK QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Qurbonova Maftuna Faxriddinovna

Alfraganus universiteti Pedagogika kafedrası o'qituvchisi, P.f.d. (DSc)

maftunafaxriddinovna29@gmail.ru

Annotatsiya: *ushbu maqolada ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarida pedagogik qadriyatlarni shakllantirish usullari, sifatli ta'lim o'quvchilarning mantiqiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini va o'z qadriyatlarini hurmat qilish ko'nikmalarini shakllantira olish bilan o'lchanishi, pedagogik qadriyatlarga asoslangan ta'lim natijasida o'quvchilar ijtimoiy burch va sadoqatni anglagan, vijdoni uyg'oq, mas'uliyatli va faol shaxslarga aylanishi haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *"Qadriyatlar shajarasi" o'yini, "Mening haqiqatlarim" o'yini, "Mumkin emas ..." o'yini, "Qadr-qimmat tuyg'usi" treninggi, "Suratdagi sir" treningi, Intuitsiya mashqi, qadriyat, aksiologiya, ixtisoslashtirilgan maktab.*

Abstract: *This article discusses the methods of forming pedagogical values in students of specialized schools, how quality education is measured by the formation of students' logical and critical thinking skills and skills to respect their own values, and how, as a result of education based on pedagogical values, students become conscious of social duty and loyalty, conscientious, responsible and active individuals.*

Keywords: *"Tree of Values" game, "My Truths" game, "It is impossible ..." game, "Sense of Value" training, "Secret in the Picture" training, Intuition exercise, values, axiology, specialized school.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются методы формирования педагогических ценностей у учащихся специализированных школ, как качество образования оценивается по формированию у учащихся навыков логического и критического мышления и умения уважать собственные ценности, и как в результате образования, основанного на педагогических ценностях, учащиеся становятся осознанными в отношении социального долга и лояльности, добросовестными, ответственными и активными личностями.*

Ключевые слова: *игра «Древо ценностей», игра «Мои истины», игра «Невозможно...», тренинг «Чувство ценности», тренинг «Секрет в картинке», упражнение на интуицию, ценности, аксиология, специализированная школа.*

Ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarida pedagogik qadriyatlarni shakllantirishni faqat turli topshiriqlarni yechish davomida amalga oshirish bilan bir qatorda, sinfdoshlari, ota-onalari muloqoti jarayonida ham amalga oshirish mumkin. Bu holatda o'quvchiga shunday sharoitni yaratib berish lozimki, bunda nazariy tayyorgarlik, faoliyatni (o'quv-boshqaruv, o'quv-axborot, o'quv-mantiqiy) mustahkamlash negizining ijtimoiy ahamiyati bayon qilinadi. Masalan, interaktiv



o'yinlarni qo'llash, loyihalarni amalga oshirish.

O'quvchilarda qadriyatlar tizimini shakllantirish maqsadga yo'naltirilgan trening mashg'ulotlari, pedagogik-psixologik o'yinlarni samarali tashkil etishga ko'p jihatdan bog'liq. Quyida ayrim o'yin va trening mashg'ulotlarini keltirib o'tamiz.

“Qadriyatlar shajarasi” o'yini ishtirokchilardan o'z tajribalari asosida beshta varaq qog'ozga o'zlari uchun ahamiyatli bo'lgan qadriyatlarni yozib, muhimlik darajasiga ko'ra tartiblash topshirig'i beriladi. O'quvchilar tomonidan yozilgan qadriyatlar aralashtiriladi. Boshlovchi tomonidan ishtirokchilardan qadriyat yozilgan varaqni g'ijimlab tashlash va hayotini bu qadriyatsiz qanday

tasavvur qilishini yozma bayon qilish so'raladi. Bu jarayon har bir qadriyat yozilgan varaq bilan takrorlanadi. Shundan so'ng, ishtirokchilardan qadriyat yozilgan varaqni g'ijimlagan paytdagi his-tuyg'ularini baham ko'rishlari so'raladi. Keyin boshlovchi ishtirokchiga qadriyatlarni qaytarish imkoniyatini e'lon qiladi, o'quvchilar qadriyat yozilgan g'ijimlangan qog'ozlarni birma-bir qaytarib olishadi. Keyin ishtirokchilardan qadriyat yozilgan varaqni g'ijimlangan va varaqqa yozilgan qadriyatlarni tashlab yuborilgan vaqtdagi holati va kechinmalarini solishtirishlari so'raladi. yo'qotilgan paytdagi qadriyatlarni hozir ham xuddi shunday qadr-qimmatga egami yoki yo'qmi ekanligini yozma bayon qilish ham so'raladi. Guruh a'zolaridan ba'zilari qadriyatlarni ahamiyatiga ko'ra o'rinlarini almashtirganliklarini ham ma'lum qilishadi. Mashg'ulot so'nggida boshlovchi natijalarni muhokama qilib, xulosalami bayon etadi. “Qadriyat shajarasi yoki yo'qotilgan qadriyat” o'yinini yakka va juftlikda ishlash tavsiya qilinadi. Mazkur o'yinni jamoaviy tarzda bajarish o'quvchilarda sheriklaridan uyalish, tortinish va boshqa noqulayliklarga sabab bo'lishi mumkin.

“Mening haqiqatlarim” o'yini. Ishtirokchilar o'yin davomida mavjud bo'lgan qadriyatlar tizimidan foydalangan holda o'yin jarayonida shaxsiy qadriyatlarning muhimligini ko'rsatishlari kerak. Ishtirokchilar navbatma-navbat “Men hech qachon... qilmaganman” iborasini o'z ichiga olgan gapni ifodalaydilar va ularning gaplarining to'g'riligiga qarab jamoa tomonidan baholanadilar (masalan, “Men hech qachon yolg'on gapirmaganman”, “Hech qachon boshqalarni ortidan g'iybat qilmaganman”, “Men hech qachon haqoratomuz so'zlarni ishlatmaganman” va boshqalar). Qolgan o'quvchilar bayonotlarni eshitib, agar gap noto'g'ri bo'lsa, barmoqlaridan birini yopadilar. Masalan, agar o'quvchi haqoratli so'zlarni ishlatga, ular bir barmog'ini yopishadi, agar keyingi ishtirokchining gapi ham ular uchun noto'g'ri bo'lsa ular boshqa barmog'ini yopishadi va hokazo. Hammasi bo'lib o'nta bayonot berilgandan so'ng, agar kimdir barmoqlarini berkitmasdan qolsa, u g'alaba qozonadi. O'qituvchi o'quvchilarning fikr-mulohazalari haqiqatga mos kelishi muhimligini va barmoqlarni adolatli tarzda yopish zarurligini ta'kidlaydi. O'yin barcha ishtirokchilar navbatma-navbat gapirmaguncha davom etadi.



“Mumkin emas ...” o'yini. Ushbu o'yin qadriyatlar tizimini tushunish, to'g'ri tahlil qilish maqsadida amalga oshiriladi. Shu maqsadda guruh ikkiga bo'lingan. Birinchi guruh o'z xohish va istaklarini bildiradi, ikkinchi guruh esa bu mazmunni rad etish asosida javob berishni so'raydi. O'n daqiqadan so'ng guruhlar o'z pozitsiyalarini almashadilar. O'yinda quyidagi fikrlardan foydalanish mumkin:

1. - Men hech qachon maqsadimga erishmayman.
- Yo'q, bunday demang. Agar siz yaxshi niyat bilan yaxshi fikrlarni o'ylasangiz, u albatta amalga oshadi.

2. - Ayrim ustozlarimizni nodonligi uchun hurmat qilmayman.
- Yo'q, bunday qilmaslik kerak. Alisher Navoiy aytganidek: “Birov senga to'g'ri yo'lda bir harf o'rgatgan bo'lsa, ming xazinadan afzaldir”.

3. -Menga farqi yo'q, bugun bir odam bilan, ertaga boshqa odam bilan do'st bo'lishim mumkin.

- Buni qilish noto'g'ri. Chunki do'stlardan tezda voz kechish, insonni o'zini beqadr qiladi.

O'yindan keyin dalillar, fikrlarni asoslash, ularni rad etish sabablari tahlil qilinadi.

“Qadr-qimmat tuyg'usi” treninggi.

Treningning maqsadi: o'quvchilarda o'zini namoyon qilish, o'zini o'zi baholashni rivojlantirish, boshqalar bilan muloqot qilish ko'nikmalarini oshirish.

Materiallar: flip-chartlar, markerlar. Trening borishi:

1. Birinchidan, barcha o'quvchilar o'zlarining shaxsiy qiziqishi, характери, fazilatlarini, ijobiy va salbiy odatlarini yozma tarzda bayon etadilar.

2. Keyin murabbiy ularning har biridan o'zi haqida o'ziga bergan tafsilotlarni o'qib chiqishni so'raydi.

3. O'quvchi o'z ro'yxatida yozilgan narsalarni o'qib chiqqach, murabbiy boshqa o'quvchilardan o'sha o'quvchi haqida o'z fikrlarini aytib berishni so'raydi, bunda debat tarzida fikr-mulohaza holatini yaratadi.

Fikr bildirish jarayonida o'quvchilar quyidagi qoidalarga amal qilishlari kerak:

1) Boshqa o'quvchi haqida fikr bildiring;
2) O'z fikr va his-tuyg'ularingizni aniq ifodalang, navbat bilan gapiring; 3) Boshqalarni xafa qiladigan yoki tanqid qiladigan tarzda gapirmang; 4) baho qo'ymaslik;

5) "Agar men sizning o'rningizda bo'lsam, men ...", "Siz kerak ..." kabi iboralar yordamida maslahat bermang.

6. O'z ro'yxatida yozilgan narsalarni o'qib bo'lgach, oxirgi ishtirokchi fikr-mulohaza namunasi keltirilgunga qadar davom etadi.

“Suratdagi sir” treningi. Har bir o'quvchidan ikkita rasm chizish vazifasi talab qilinadi: "men qandayman" va "men qanday bo'lishni xohlayman". Chizish uchun besh daqiqa vaqt ajratiladi. Chizmalar imzolanmaydi. Chizmaning texnik



jihatlari muhim emas. Barcha chizmalar xonaning markazida ko'rsatiladi. Keyin bittasi tanlanadi. Har bir inson nimani ko'rganini va nimani idrok etishini, uni chizgan odam o'zini qanday ko'rishini, qanday ko'rinishni xohlashini (nimani o'zgartirishni xohlashini) muhokama qiladi. Suratlar navbatma-navbat muhokama qilinadi. Muallif o'zini oshkor qilmaydi. Hamma gapirgandan so'ng, ishtirokchilar muallif kimligini taxmin qilishga harakat qilishlari mumkin. Keyin muallif o'zini tanishtiradi va ular chizgan rasmida nimani ifodalamoqchi bo'lganligini tushuntiradi.

Intuitsiya mashqi. O'quvchilar yangi mavzu bayonidan oldin 1 dona oppoq varaq olishadi va o'rtasidan bo'lib olishadi (ruchkada). Chap tomoniga "bugun" o'ng tomoniga "kelajakda" deb yozib qo'yishadi. Mashq davomida o'quvchilar o'qituvchi tomonidan aytilgan ma'lumotlarni "bugun" deb nomlagan sahifaga yozadi va "kelajakda" sahifasiga esa ushbu ma'lumotlarni 5-6 yildan so'ng qanday maqsadda foydalanish to'g'risida yozishadi yoki tasavvur yordamida obrazli tasvirlab beriladi. Masalan, "bugun" sahifasiga – adabiy qahramonlar yoki tarixiy shaxslar haqida ma'lumotlar yoziladi. Kelajak sahifasi uchun - o'quvchi o'tmishga sayohat qilib tarixiy shaxs bilan yonma-yon turganini tasavvur qilib fikrini obrazli ifodalashi mumkin. O'qituvchi tomonidan qiyidagi tartibda fikrlar bildirilishi mumkin:

Bugun	Kelajakda
Yomg'ir yog'yapti	Suv ko'p bo'ladi va dehqonlar yaxshi hosil oladi
Darsdaman	Yaxshi natijalarga erishaman
Akam universitetda o'qiyapti	O'z kasbining mohiri bo'ladi
Ufq romanini o'qiyapman	Adabiyot fanidan yaxshi baho olaman
Ingliz tilidan yangi so'zlar yodlayapman	IELTS 9 ball olaman va o'quv markazga ishga kiraman
Darslarga Kirmayapman	Hech bir maqsadimga erisha olmayman
Doim telefon o'ynayman. Qo'limdan tushmaydi	Ko'z bilan bog'liq kasallikka chalindim. Xotiram juda pasaydi. Fanlarni o'zlashtira olmadim

Ushbu metod - kelajakka intilish orqali maqsadlarga erishishni o'rgatadi ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarida:

maqsadga asoslanuvchi shaxsga yo'naltirilgan pragmatik o'quv muhiti talablariga mos keluvchi;

pedagogik qadriyatlarni rivojlantirish trayektoriyasi (integratsion, individual, simbiotik, sinergetik faoliyatlar) ni belgilovchi;

pedagogik qadriyatlar ekotizmini shakllantiruvchi tezkor mushohadali axborot almashishga o'rgatuvchi mantiqiy-tanqidiy keyslarni ijtimoiy vaziyatlarda modellashtirish va qayta aloqali faoliyatda tezkor munosabatda qo'llashga o'rgatuvchi pedagogik qadriyatlarni shakllantiruvchi kouch suhbatlar, diagnostik



testlar, muammoli keyslar ishlab chiqildi.

mantiqiy-tanqidiy keyslar: musofirlikda, ota-onangizdan uzoqda yurganingizda nimalardan qo'rqasiz;

ota-ona sog'inchi o'rnini qanday qanoatlantirish mumkin;

tasavvur qiling oilangizdan uzoqda paytingiz onangiz betobligini eshitdingiz, bunday vaziyatda siz qanday yo'l tutasiz;

xorijda mehnat faoliyatini davom ettirayotganingizda yaqin do'stingiz nikoh to'yiga taklifnoma yubordi, bunday vaziyatda nimalarni his qilasiz?

Ushbu mazmundagi keyslar o'zini o'zi taftish qiluvchi, o'quvchining mustaqil shaxs sifatida kelajak rejalarini ta'limiy qadriyatlar asosida tuzishga yo'naltirishi tajriba sinov ishlari jarayonida ochiqlandi.

Sifatli ta'lim o'quvchilarning mantiqiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini va o'z qadriyatlarini hurmat qilish ko'nikmalarini shakllantira olish bilan o'lchanadi. pedagogik qadriyatlarga asoslangan ta'lim natijasida o'quvchilar ijtimoiy burch va sadoqatni anglagan, vijdoni uyg'oq, mas'uliyatli va faol shaxslarga aylanadi.

Qadriyatga asoslangan ta'lim jamiyatga qanday ta'sir qiladi? Qadriyatga asoslangan ta'lim mas'uliyatli, empatik va daxldorlik hissiga ega shaxslarni tarbiyalaydi. Tinchlik, inklyuzivlik, hamjihatlik va barqarorlikni tushunish, qadrlash va targ'ib qilish orqali bu shaxslar jamiyatga hissa qo'shadilar.

Xalqaro ta'lim andozalari akademik samaradorlikni oshirishi mumkin. Xalqaro ta'lim andozalari akademik muvaffaqiyat uchun muhim bo'lgan akademik konsentratsiya, samaradorlik va baholash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Pedagogik qadriyatlarga asoslangan ta'lim nafaqat shaxslarni akademik bilimlar bilan qurollantiradi, balki ularni hayot qiyinchiliklarini yengish, muvaffaqiyat qozonish, jamiyatda faol shaxs sifatida ijtimoiylashuvi uchun axloqiy kompas – mafkuraviy immunitetini mustahkamlaydi. Tez o'zgaruvchan dunyoda pedagogik qadriyatlarga asoslangan ta'lim barqaror akademik taraqqiyotni milliy o'zlik, vatanparvarlik, insoniylik integratsiyasi uzviyligini ta'minlaydi.

Pedagogik qadriyatlarga asoslangan ta'lim kelajagimizga qo'yilgan sarmoyadir. Biz estafetani kelajak avlodlarga ishonib topshiramiz va ularni xalqaro ta'lim standartlariga layoqatli hamda milliy qadriyatlar asosida tayyorlash asosiy burchimiz hisoblanadi. Shu o'rinda qadriyat tushunchasi etimologiyasiga to'xtalib o'tmoqchimiz:

Qadriyat tushunchasi maxsus falsafiy lug'atda XIX asming 60-yillarida paydo bo'lganligi ta'kidlab o'tilgan. Falsafiy lug'atning 5-jildida qadriyatga quyidagicha ta'rif berilgan: «Qadriyat falsafiy va sotsiologik tushuncha [45]. U birinchidan, bir obyektning ijobiy va salbiy qimmatini, ikkinchidan, ijtimoiy

ongning normativ belgilovchi-baholovchi jihati (subyektiv qadriyatlar yoki ong qadriyatlari)ni ifoda etadi». Qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot» nomli ilmiy ishlar to'plamida «Qadriyat – inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan millat, elat va ijtimoiy guruhlarining manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan va shu tufayli



ular tomonidan baholanib, qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne'matlari hodisalari majmuini tushunmog'imiz lozim», deb ta'kidlab o'tilgan. «Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug'at»da, «Qadriyatlar - jamiyatda kishilar o'rtasida obro'ga, e'tiborga, hurmatga, nufuzga, ahamiyatga ega kishilar, munosabatlar, holatlar, moddiy narsalar va ma'naviy boyliklar majmuasi» degan ta'rif berilgan [41]. «Qadriyat - voqelikdagi muayyan hodisalarning, umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llaniladigan falsafiy-sotsiologik va aksiologik tushuncha», deb ta'rif berilgan.

«Qadriyat - bu tabiiy va ijtimoiy hayotda namoyon bo'ladigan, kishilar qadrlaydigan va ular uchun manfaatli, foydali, ijobiy ahamiyatli tabiiy, individual va ijtimoiy ehtiyojni qondirishga xizmat qiladigan, moddiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy, mafkuraviy va siyosiy omillar yig'indisidir».

«Qadriyatlar, - deb yozadi O.Musurmonova, -inson tomonidan qadrlanadigan narsalardan iborat bo'lib, kishilarning talabi, xohishi, qiziqishi va maqsadi asosida o'zaro munosabat, o'zaro ta'sir (atrof-muhit bilan, insonlar bilan) natijasida dunyoga keladigan holatdir» [44].

Siyosatshunos olim N.Jo'rayevning ta'kidlashicha, «Qadriyat deyilganda, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lib, elat va ijtimoiy guruhlarining manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan tabiat va jamiyat hodisalari majmui tushunilishi lozim» [45]. Qadriyat tushunchasining kelib chiqishi shuni ko'rsatadiki, unda uch asosiy belgi birlashadi:

narsa va hodisalami baholashga doir insonning amaliy va emotsional munosabatini ta'riflash;

insonning psixologik tavsifini aniqlovchi axloqiy kategoriyalami tavsif etish;

odamlar orasidagi munosabatlami xarakterlovchi ijtimoiy hodisalami ta'riflash.

«Qadriyat» tushunchasining rivoji shartli ravishda qadriyatlarining turli ko'rinish (iqtisodiy, psixologik, axloqiy, estetik, bilishga oid, ijtimoiy) larini ajratib ko'rsatish, inson tabiati, uning bilishga intilish mexanizmlarini anglab yetish, bilish faoliyatining harakatlantiruvchi kuchlarini aniqlashga imkon beradi. Pedagogik qadriyatlar o'z mohiyatiga ko'ra ma'naviy-axloqiy, kasbiy hamda ijtimoiy qadriyatlar sifatida guruhlanadi hamda umummadaniy, ma'naviy-axloqiy, estetik, intellektual va ijodiy yo'nalishga ega bo'ladi.

Aksiologiya tushunchasi va qadriyat tushunchasi tahliliga to'xtaladigan bo'lsak, Aksiologiya falsafaning mustaqil sohalaridan biridir. Bu tushuncha adabiyotda turli yo'llar bilan tilga olinadi. Aksiologiya yunoncha «axio» qadriyat va «logos» bilim degan so'zlardan olingan bo'lib, qadriyatlar haqidagi bilimlarning ma'nosini bildiradi. I.T.Frolovaning falsafiy lug'atida (1986) aksiologiyaga qadriyatlar tabiatini falsafiy nuqtai nazardan o'rganuvchi fan sifatida ta'rif berilgan. Aksiologiya g'arb falsafasida 19-asr oxiri va 20-asr boshlarida qadriyatlar bilan bog'liq ayrim murakkab masalalarni hal qilishga urinish sifatida paydo



bo'ldi.

V.E.Kemerovning zamonaviy falsafiy lug'atida (1998) "aksiologiya" tushunchasiga shaxsning hayotiy maqsadlari, borliqning ma'nosini, o'tmishini, aniqlash qobiliyati, qadriyatlarga asoslangan uslub va yo'llar haqidagi bilimlar tushuniladi. Aksiologiya tushunchasi qadriyatlar va baholashlar haqidagi bilimlarga nisbatan keyinroq paydo bo'lgan. Bu konsepsiyani 19-asrning ikkinchi yarmida nemis qadriyatlar nazariyotchisi Eduard Gartman va fransuz olimi P.Lapilar tomonidan sohaga kiritilganligini alohida ta'kidladik[49].

Qadriyatlarning ta'limga integratsiyalashuvi bilan u shaxsga va butun jamiyatga ijobiy hissa qo'shadi. Akademik bilimlardan tashqari, pedagogik qadriyatlarga asoslangan ta'lim hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu ko'nikmalarga tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, muloqot qilish, jamoada ishlash, moslashuvchanlik va hissiy bilish kiradi. Mazkur hayotiy ko'nikmalar o'quvchilarni qiyinchiliklarni yengishga, ongli qarorlar qabul qilish va nuvaffaqiyatli hayot kechirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Davis, G., & Rimm, S.(2004). Education of the gifted and talented (5th ed.). Boston: Allyn & Bacon.Karnes, F.A., & Bean, S.M. (2001). Methods and Materials for Teaching the Gifted. Waco, TX: Prufrock Press.
2. Эшчанов Р., Lamers J., Бобожонова Г., Бекчанов Д. Priority challenges of education sector reforms in moder-nizing Uzbekistan // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 7 No. 12, 2019. -P.92-97.
3. "President Chen Meets with the Dalai Lama," Office of the President Republic of China (Taiwan), April 5, 2011, <https://english.president.gov.tw/NEWS/863>.
- 4.Q.Nazarov. Falsafa asoslari. - Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2018. - 380 b.
- 5.Arastu. Axloqi kabir. — T.: Sharq, 2005. — 123 b.
6. Psych Central. Retrieved on April 14, 2012, from <http://psychcentral.com/news/2012/01/02/character-buildingimproves-quality-of-education/33131.htm>
7. Xodjayev B.X. "Pedagogik aksiologiya" o'quv qo'llanma. T. "Fan va texnologiya", 2011. - 156 bet.
8. O.Musurmonova. Umumiy pedagogika. Toshkent. "O'zkitob savdo nashriyoti", 2020, 61-bet. zarur.
9. Jo'rayev N. Mustaqil O'zbekiston tarixi. To'ldirilgan, qayta nashr. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent, 2013.
10. Прямикова Е. В.Исследования ценностных ориентаций школь-ников и студентов : методологические и методические вопросы / Е. В. Прямикова, И. В.



Шапко // Педагогическое образование в России. — 2019. — № 4. — С. 43—49. — DOI: 10.26170/po19-04-05.

11. Ваҳобов М.М. Умумий ўрта таълим тизимида ўқитиш сифати мониторинги моделини такомиллаштириш: пед. фан. док. дис. автореф. – Тошкент, 2016. – 80 б.